

# Hurmatli abituriyent!



Hurmatli abituriyent!

Avvalo, Sizga mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasidan bizning Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tanlaganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Bizning jamoa o'z oldiga zamonaviy bilimlarni egallab, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishni hamda jonajon Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishni niyat qilgan intiluvchan yoshlarga o'z maqsadlariga yetishishida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va bor imkoniyatlarini safarbar etadi.

2020-2021 o'quv yilida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha 32 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 2075 nafar talabani qabul qiladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlarning oliy ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan sharoitlar yildan-yilga kengayib, inson kapitaliga davlat tomonidan juda katta investitsiya kiritilmoqda. Bunday g'amxo'rlik natijasida talabalikka qabul qilingan yoshlar soni oxirgi uch yilda uch barobarga ortdi. Joriy yilda abituriyentlarning hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish to'liq masofadan amalga oshirildi.

Bizning Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga kirish uchun 16666 nafar abituriyent hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazdilar.

Bugungi kunda butun jahonda kechayotgan pandemiya sababli mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari muddatlari kechiktirildi. Bu avvalo, Siz - yoshlarning salomatligingizni o'ylab, o'z bilimingizni namoyon qilish uchun qulay va xavfsiz shart-sharoit yaratish maqsadida qilindi.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan kirish imtihonlari shaharlar va viloyatlardagi markaziy stadionlarda, ya'ni ochiq maydonlarda karantin talablariga qat'iy rioya etgan holda 2020 yil sentabr oyining 2-sanasidan boshlab o'tkazilishi rejalashtirildi.

Siz pasportingiz va DTM ruxsatnomangiz bilan ruxsatnomada ko'rsatilgan manzilga belgilangan vaqtda yetib kelishingiz zarur. Eslatib o'tamiz, DTM ruxsatnomalarini joriy yilning 22 avgustidan boshlab DTMning [dtm.uz](http://dtm.uz) saytidagi shaxsiy kabinetingiz orqali olishingiz mumkin!

## **AZIZ ABITURIYENT !**

Imtihon kuni belgilangan manzilga karantin qoidalariga rioya qilib, xavfsizligingizni ta'minlab, yaxshi kayfiyatda va o'z vaqtida yetib kelishingizni so'raymiz.

Aziz ota-onalar va yaqinlaringizdan imtihon kunlari uyda qolib, imtihon jarayonlarini onlayn kuzatib borishlarini so'raymiz.

Kirish imtihonlarining o'tish muddati, jadvali va natijalari hamda o'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga javoblarni [tiiame.uz](http://tiiame.uz) sayti, [TIIAME.ABITURIENT](https://t.me/TIIAME).telegramm kanalidan olishingiz, shuningdek [admin@tiiame.uz](mailto:admin@tiiame.uz) elektron pochta yoki 71-237-19-36, 71-237-09-75, 71-237-19-87 raqamli telefonlarga murojaat etishingiz mumkin.

Unutmang, faqat puxta tayyorgarlik va kuchli bilim bilangina talaba bo'lish baxtiga muyassar bo'lishingiz mumkin. Shunday ekan, bir daqiqa ham bilim olish va o'z ustingizda ishlashdan to'xtamang. Sizga ushbu sinovlardan muvoffaqiyatli o'tib olishingizda ulkan zafarlar tilaymiz. Omad yor bo'lsin!

---

Hurmat bilan,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
rektori, professor

O'. Umurzakov